**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI**
**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI**
**TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

# “O‘ZBEK TILI TARAQQIYOTI VA XALQARO HAMKORLIK MASALALARI”
**mavzusidagi xalqaro konfrensiya**

# “ZAMONAVIY LEKSIKOGRAFIYA, TIL KORPUSLARI VA TURKIY TILLAR PLATFORMALARINI YARATISH MUAMMOLARI”
**nomdagi sho‘ba materiallari**

**(2021-yil 18-oktabr)**

**Toshkent – 2021**

# “Turkiy tillarning lingvodidaktik elektron platformasini yaratish” nomli amaliy loyihalar xususida

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev 2019-yil 14-15-oktabr kunlari Boku shahrida boʻlib oʻtgan Turkiy tilli davlatlar hamkorlik kengashining (Turkiy kengash) yettinchi sammitida ishtirok etdi. Ozarbayjon, Qozogʻiston, Qirgʻiziston, Turkiya, Oʻzbekiston, kuzatuvchi mamlakat sifatida ishtirok etayotgan Vengriya hamda Turkmaniston delegatsiyalari rahbarlari Turkiy kengash doirasidagi koʻp qirrali hamkorlikni mustahkamlash va kengaytirishga qaratilgan masalalarni muhokama qildilar. Sammitda Turkiy kengashga a’zo davlatlar rahbarlarining Oʻzbekiston Respublikasining toʻla huquqli a’zo sifatida Tashkilotga qoʻshilishi toʻgʻrisida Qoʻshma bayonoti qabul qilindi. Oradan 17 yil oʻtib, Oʻzbekiston Turkiyzabon davlatlar hamkorlik Kengashida (Turkiy kengash) davlat rahbari darajasida yana ishtirokini davom ettirdi. Bunday oʻzgarish, turkiy tilli davlatlar orasidagi madaniy, siyosiy-iqtisodiy hamkorlik munosabatlarining yanada kuchayishiga olib keladi.

“Millatlararo munosabatlar sohasida Oʻzbekiston Respublikasi davlat siyosati konsepsiyasini tasdiqlash toʻgʻrisida”gi **Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining farmonida** Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan doʻstlik aloqalari qoʻmitasi tashkil etilganligi hamda jamiyatda millatlararo totuvlik va bagʻrikenglikni ta’minlash boʻyicha davlat siyosati izchil amalga oshirib kelinayotganligi ta’kidlanadi.

Bugungi kunda mamlakatimizda yashab kelayotgan 130 dan ziyod millat va elatlarning vakillari Oʻzbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlari taqdim etgan teng huquq va imkoniyatlardan foydalanib, iqtisodiyotning turli tarmoqlarida va ijtimoiy sohada, ilm-fan va madaniyat sohalarida samarali mehnat qilib, Vatanimizning gullab-yashnashiga va uning mustaqilligini mustahkamlashga, respublikaning xalqaro maydondagi obroʻ-e’tibori va imijini oshirishga munosib hissa qoʻshib kelmoqdalar.

Shu bilan birga, xalqaro va mintaqaviy munosabatlarda davom etayotgan globallashuv va transformatsiya, dunyoda iqtisodiy, siyosiy, milliy, diniy va boshqa ziddiyatlar kuchayib, axborot va kibermakonlarida qarama-qarshi kurash ortib borayotgan bir sharoitda millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar

bilan do‘stlik aloqalarini yanada rivojlantirish sohasida o‘z yechimini taqozo etayotgan bir qator dolzarb masalalar saqlanib qolmoqda.

Mana shu dolzarlik va zaruratdan kelib chiqib, mazkur loyiha ham o‘zbek tilining mamlakatimiz ijtimoiy hayotida va xalqaro miqyosdagi obro‘-e’tiborini oshirish; o‘zbek tili ta’limini takomillashtirish, o‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzini yuksaltirish, mamlakatimiz hududida istiqomat qiluvchi barcha millat va elatlar tillarining rivojlanishi uchun keng imkoniyatlar yaratish, ularga davlat tilini o‘rganish uchun qulay shart-sharoitlar yaratib berish; uning boshqa tillar bilan aloqalari istiqbollarini belgilash, xorijda istiqomat qiluvchi vatandoshlar va o‘zbek tilini o‘rganish istagida bo‘lgan chet el fuqarolari uchun o‘zbek tili darsliklari va elektron dasturlarini ishlab chiqish va ularni keng miqyosda tarqatish kabi vazifalarni amalga oshirishga xizmat qiladi.

“**Turkiy tillarning lingvodidaktik elektron platformasi**” o‘zbek tilining milliy korpusi hamda kompyuter lingvistikasi sohasining muhim manbasi hamda ***O‘zbekistonda o‘zbek va qardosh turkiy tillar ta’limi uchun lingvodidaktik (til o‘rgatishga mo‘ljallangan) platforma vazifasini bajara oladi.***

Loyiha maqsadi:

1) o‘zbek, turk, qirg‘iz, qozoq, ozarbayjon, tatar tillarining qiyosiy grammatikasini yaratish. Bu maqsadni amalga oshirish uchun “Turkiy tillarning qiyosiy grammatikasi” nomli elektron monografiya yaratiladi hamda platformaga joylashtiriladi, nashrga tayyorlanadi.

2) mamlakatimizda qardosh turkiy xalqlar tillarini targ‘ib qilishga bag‘ishlangan elektron platforma orqali mamlakatimizdagi ichki va tashqi turizmni rivojlantirish;

3) turkiy tilda so‘zlashuvchi xalqlar qiyosiy grammatikasining multimedia dasturiy mahsulotlarini yaratish;

4) turkiy tilda so‘zlashuvchi xalqlar qiyosiy grammatikasini targ‘ib qilishga bag‘ishlangan platforma orqali turkiy tillar oilasiga mansub tillarni hamda ularning boy milliy-ma’naviy merosini dunyo miqyosida keng targ‘ib etish;

5) turkiy tillarda yaratilgan bebaho asarlardan yaxlit holda bahramand bo‘lish, ona tilimiz boyliklarni kelajak avlodga meros qoldirish hamda tilimizning jahon global tarmog‘idan o‘rin olishiga erishish.

6) O‘zbekistonda millatlararo totuvlikni mustahkamlash va xorijiy mamlakatlar bilan do‘stlik aloqalarini rivojlantirishda davlat tili, ya’ni o‘zbek tilining ahamiyatini, ona tilimizning sofligi, go‘zalligi va ma’no-mazmunga boyligini keng yoritish hamda targ‘ib qilish.

Kelgusida elektron platformadan o‘rin olgan materiallar orqali turkiy tilda so‘zlashuvchi xalqlar tili, adabiyoti va madaniyatini jahon miqyosida yana-da kengroq targ‘ib qilish rejalashtirilgan.

Axborot texnologiyalaridan foydalangan holda turkiy tillarning lingvodidaktik elektron platformasini yaratishda **quyidagi maqsadlarga erishishga alohida e’tibor qaratildi:**

1. Qardosh turkiy xalqlar yozma manbalarini elektron (foto, video) variantga koʻchirish.

Mazkur maqsad bilan bogʻliqlikda quyidagi yoʻnalishlarda ishlar amalga oshiriladi:

1. Izlanishga doir: qardosh turkiy xalqlar yozma manbalari bilan tanishish, turkiy tilda soʻzlashuvchi xalqlar grammatikasining manbalariga tavsif yozish.
2. Amaliy: materiallarni foto koʻrinishida formatlash, videolavhalar tayyorlash.
3. Tatbiqiy: yaratilgan lavhalardan veb-sayt yaratish, koʻp tilli elektron platformani xorijiy va mahalliy oliy ta'lim muassasalari oʻrtasida ommalashtirish.

**"Turkiy tillarning lingvodidaktik elektron platformasini yaratish" nomli amaliy loyihalardan kutilayotgan natijalar**

– ta'lim boshqa tilda olib boriladigan oliy ta'lim muassasasi hamda xorijiy ta'lim muassasalaridagi hamkor universitetlar uchun innovatsion metodik qoʻllanma;

– oliy ta'limning qardosh tillarni oʻrganish sohasini oʻrganuvchilar, xorijlik talabalar uchun oʻqish savodxonligini rivojlantiruvchi topshiriqlar toʻplami;

– oʻzbek, turk, qozoq, qirgʻiz, turkman, qoraqalpoq darslari uchun video dars, audiomatnlar jamlanmasi;

– elektron oʻquv lugʻatlar;

Yuqorida sanalgan xususiyatga ega mahsulotlar quyidagicha nomlanadi:

1. "Turkiy tillar grammatikasi" elektron oʻquv qoʻllanmasi.
2. Turkiy tillar (oʻzbek, turk, ozarbayjon, qozoq, qirgʻiz, tatar)ning elektron orfografik lugʻati.
3. Turkiy tillar (oʻzbek, turk, ozarbayjon, qozoq, qirgʻiz, tatar)ning folklor va badiiy adabiyoti namunalaridan iborat video, audio mahsulotlarini jamlagan multimedia jamlanmasi.

Platformaga turkiy tillarda yozilgan **badiiy asarlar, xalq ogʻzaki ijodi namunalari, milliy urf-odatlarni targʻib etuvchi** multimedia-video materiallarini kiritish internetda turkiy xalqlar milliy-madaniyatini targʻib etuvchi kontentning boyishiga olib keladi, shu orqali turkiy xalqlar boy milliy-ma'naviy merosini dunyo miqyosida keng targʻib etishga erishiladi.

Ona tilimiz boyligi, goʻzalligini dunyoga targʻib etishning, oʻzbek tilini asrab qolish, kelgusi avlodga yetkazishning kafolatli vositasi va usuli oʻzbek tilidagi yozma merosni internetga kiritish, tilimizning kibermaydondan joy olishiga erishish sanaladi. Oʻzbek tilining yozma va ogʻzaki merosini, hozirgi oʻzbek tilida yozilgan material(fayl)larni internetga joylashtirish tilimizning dunyo miqyosida oʻzbek tilida soʻzlashuvchi, tilimiz tadqiqotchi va qiziquvchilari tomonidan foydalanishiga erishiladi.

**Nozliya Normuradova**, f.f.d. (DSc)
**Laylo Raupova**, f.f.d. professor
**Manzura Abjalova,** f.f.f.d. (PhD)

# About practical projects on "Creating a linguo-didactic e-Learning platform for Turkic languages"

President of the Republic of Uzbekistan Shavkat Mirziyoyev paid a visit in the seventh summit of the Cooperation Council of Turkic Speaking States (Turkic Council), which took place on October 14-15, 2019 in Baku. The heads of delegations from Azerbaijan, Kazakhstan, Kyrgyzstan, Turkey, Uzbekistan, Hungary and Turkmenistan, who were participating as observers, discussed issues aimed at strengthening and expanding multifaceted cooperation within the Turkish Council. The summit adopted a joint statement of the leaders of the Turkic Council member states on the accession of the Republic of Uzbekistan as a full member of the Organization. Seventeen years later, Uzbekistan resumed its participation in the Cooperation Council of Turkic Speaking States (Turkic Council) at the level of head of state. Such a change will lead to the strengthening of cultural, political and economic cooperation between the Turkic-speaking countries.

The Decree of the President of the Republic of Uzbekistan "On approval of the Concept of state policy of the Republic of Uzbekistan in the field of interethnic relations" provides for the establishment of the Committee on International Relations and Friendship with Foreign Countries. It is noted that the state policy on ensuring peace and tolerance is being consistently implemented.

Representatives of more than 130 nationalities and ethnic groups living in our country today, using equal rights and opportunities provided by the Constitution and laws of the Republic of Uzbekistan, work effectively in various sectors of the economy and social sphere, science and culture, have been making a worthy contribution to strengthening its independence, enhancing the prestige and image of the republic in the international arena.

At the same time, there is still a number of pressing issues in the context of ongoing globalization and transformation in international and regional relations, intensification of economic, political, national, religious and other conflicts in the world, increasing confrontation in the media and cyberspace, further development of interethnic relations and friendly relations with foreign countries in the field that need to be addressed.

Given this urgency and necessity, this project is also aimed at enhancing the prestige of the Uzbek language in the social life of our country and internationally; Improving the education of the Uzbek language, raising the prestige of the Uzbek

language as the state language, creating ample opportunities for the development of the languages of all nationalities and ethnic groups living in the country, creating favorable conditions for them to learn the state language; to determine the prospects of its relations with other languages, to develop and widely distribute Uzbek language textbooks and electronic programs for compatriots living abroad and foreigners wishing to learn the Uzbek language.

The Linguo-didactic E-Learning Platform of Turkic Languages is an important source of information for the national corpus of Uzbek language and computer linguistics, as well as a linguo-didactic (for language teaching) platform for the teaching of Uzbek and sister Turkic languages in Uzbekistan.

Project purpose:

1) to create comparative grammar of Uzbek, Turkish, Kyrgyz, Kazakh, Azerbaijani, Tatar languages. To achieve this goal, an electronic monograph "Comparative Grammar of Turkic Languages" will be created, placed on the platform and prepared for publication.

2) to develop domestic and foreign tourism in the country through an electronic platform dedicated to the promotion of the languages of the fraternal Turkic peoples in our country;

3) to create multimedia software products of comparative grammar of Turkic-speaking peoples;

4) to promote the languages of the Turkic language family and their rich national and spiritual heritage worldwide through a platform dedicated to the promotion of the comparative grammar of Turkic-speaking peoples;

5) to enjoy the invaluable works created in the Turkic languages as a whole, to pass on the riches of our native language to the next generation and to make our language a part of the global network.

6) to extend and promote the state language, i.e the Uzbek language, the purity, beauty and richness of our mother tongue in strengthening interethnic harmony and developing friendly relations with foreign countries in Uzbekistan.

In the future, it is planned to promote the language, literature and culture of the Turkic-speaking peoples around the world through the materials available on the e-Learning platform.

Particular attention was paid to achieve the following goals in the creation of a linguo-didactic e-Learning platform for Turkic languages using information technology:

1. Transfer of written sources of the fraternal Turkic peoples to electronic (photo, video) version.

To this end, work will be carried out in the following areas:

1. Research: to get acquainted with the written sources of the fraternal Turkic peoples, to write a description of the sources of grammar of the Turkic-speaking peoples.

2. Practical: formatting materials in the form of photos, making videos.

3. Application: creation of a website from the created boards, popularization of the multilingual e-Learning platform among foreign and local higher education institutions.

**Anticipating results of the practical project “Creation of a linguo-didactic e-Learning platform for Turkic languages”**

– Innovative methodological manual for higher education institutions with other languages of instruction and partner universities in foreign educational institutions;

– A set of tasks to develop reading literacy for foreign students studying higher education in the field of fraternal languages;

– Video lessons, audio texts for Uzbek, Turkish, Kazakh, Kyrgyz, Turkmen, Karakalpak lessons;

– e-learning dictionaries;

Products with the above properties are named as follows:

1. Electronic textbook “Grammar of Turkish languages”.

2. Electronic spelling dictionary of Turkic languages (Uzbek, Turkish, Azerbaijani, Kazakh, Kyrgyz, Tatar).

3. Multimedia collection of video and audio products of folklore and fiction of Turkic languages (Uzbek, Turkish, Azerbaijani, Kazakh, Kyrgyz, Tatar).

The inclusion in the platform of works of art written in Turkic languages, examples of folklore, multimedia and video materials promoting national traditions will enrich the content of the Internet promoting the national culture of the Turkic peoples, thereby enriching the rich national and spiritual heritage of the Turkic peoples. Its heritage will be widely disseminated worldwide.

The guaranteed means and way to promote the richness and beauty of our native language to the world, to preserve the Uzbek language, to pass it on to the next generation, to introduce the written heritage of the Uzbek language on the Internet is to obtain a spot for the language in cyberspace. Posting the written and oral heritage of the Uzbek language, materials (files) written in modern Uzbek on the Internet will ensure the use of our language by Uzbek-speakers, researchers and enthusiasts of our language around the world.

**Nozliya Normuradova**, DSc
**Laylo Raupova**, DSc, professor
**Manzura Abjalova**, PhD